



**ZAMONAVIY KLINIK
LABORATOR TASHXISI
DOLZARB MUAMMOLARI**
xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman



27 dekabr 2022 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqli saqlash vazirligi

www.ssv.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

predict how quickly they metabolize certain drugs. That is, modern molecular diagnostics are also used in the field of pharmacogenomics. Advances in molecular biology have shown that some syndromes previously classified as a single disease are actually several subtypes with completely different causes and treatments. Molecular diagnostics help to determine the subtype - for example, infections and cancers - or consist of studying the genetic analysis of a disease with a hereditary component. We can also use modern techniques in molecular diagnostics to assess the risk of cancer. It is effective to analyze people with early stages of cancer using molecular tests when they do not have obvious symptoms. For example, the ColoGuard test is a modern technique in molecular diagnostics that can be used to screen people over the age of 55.

Conclusion. As the state support of DNK molecular diagnostics is increasing, the number of clinical analyzes for DNK detection will increase in the future, even for the detection of cancer. The introduction of modern medical technology and molecular diagnostics into the field of medicine is the basis for the development of medicine and the organization of reliable and affordable examinations for doctors.

References.

1. Abdixatov Sh.Z. Kurbonova Z.Ch. Nanotexnologiya bilan davolash imkoniyatlari // Tibbiy ta'lim transformatsiyasi: megatrendlar. – Toshkent, 2021. – B. 164-168.
2. Babadjanova S.A. Kurbonova Z.Ch. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.
3. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.

LABORATORIYA TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Nishonov A.A., Nuriddinova N.F.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Klinik laborator diagnostikasining rivojlanishi uchun laboratoriya tadqiqotlarini qo'llashning ilmiy asosliligiga va belgilangan vazifalarga to'g'ri keladigan ehtimolliq talqin vositalaridan foydalanish zarur. Laboratoriya tadqiqotining klinik ko'rsatmalarga kiritilishi, ushbu tadqiqotning bemorga tanlanishi va tayinlanishi kasallikda laboratoriya ko'rsatkichining ko'payishi yoki kamayishi to'g'risidagi fikrlar pozitsiyasidan emas, balki laborator diagnostika biomarkeri sifatida ilmiy jihatdan isbotlangan ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi kerak. Shu qatorida usul va reagentlarning sezgirligi, aniqligi, prognostik qiymatigi kai ko'rsatkichlar ham ahamiyatli.

Hozirgi kunda ilmiy va laborator tadqiqotlarini amalga oshirish va baholashga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Laboratoriya usullaridan foydalanish natijasida mustahkam o'rnatilgan an'anaviy tibbiyot nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish bilan ularning roli ortmoqda. Laboratoriya tadqiqotlarining zamonaviy nomenklaturasini o'rganish, laboratoriya

diagnostikasining oldindan analitik bosqichini ta'minlashga qo'yiladigan me'yoriy talablar, sifat menejmentini ta'minlash orqali klinika va laboratoriya o'rtasida samarali dialogni shakllantirishning xalqaro tamoyillarini ishlab chiqarish laboratoriya sohasini yana jadallashtirish imkonini beradi.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini laboratoriya diagnostikasi algoritmlari bilan tanishish, qandli diabet kasalliklarini davolash kursini nazorat qilish, immun tizimi buzilishlarini laborator diagnostika qilish imkoniyatlari, onkologik kasalliklar, buyrak kasalliklari, oshqozon-ichak trakti, ichak, endokrin tizimi, qon tizimi, tizimli kasalliklar, allergik kasalliklar terapiyasini laborator nazorat qilishni malakali amalga oshirish bilan birga, klinik muammolarni hal qilishda ularning diagnostik axborotini ta'minlash uchun laboratoriya texnologiyalarining analitik xususiyatlari bilan tanishish muhim ahamiyatga egadur.

Xulosa. Tadqiqot usullarining analitik xususiyatlarini hisobga olgan holda diagnostik laboratoriyalar algoritmi qurilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu esa klinik laborator tadqiqotlariga texnologik imkoniyatlar oshishiga yordam beradi.

Adaviyotlar.

1. Abdiqatov Sh.Z. Kurbonova Z.Ch. Nanotexnologiya bilan davolash imkoniyatlari // Tibbiy ta'lim transformatsiyasi: megatrendlar. – Toshkent, 2021. – B. 164-168.

2. Babadjanova S.A. Kurbonova Z.Ch. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.

3. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.

COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLAR QON ZARDOBIDA OQSIL ALMASHINUVI KO'RSATKICHLARI TAXLILI **Niyozova Sh.S., Tursunov D.X., Alimov S.M., Axmatova K.A., Sultonova D.Sh.** *Toshkent tibbiyot akademiyasi*

Yangi COVID-19 pandemiyasi tez tarqalib, dunyo bo'ylab 163,4 milliondan ortiq odam yuqtirdi va JSST ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yil may holatiga ko'ra, ushbu infeksiyadan o'lim darajasi 3 388 634 holatni tashkil etadi. [Sabirov Dj.R. i dr., 2021]. Shuningdek, ushbu kasallik natijasida organizmning muhim to'qima va a'zolarida paydo bo'lgan patologik jarayonlar insonlarning mehnat faoliyatining susayishiga ham sabab bo'ldi. Hozirgi vaqtda bu muhim muammo bo'lib, dunyoda o'lim statistikasining ko'payishi bilan har kuni ko'proq bemorlarga ta'sir qiladi. [Zimmermann P, Curtis N., 2020]

Material va metodlar. Klinik tadqiqotlar 2020 yil sentyabr-noyabr oylarida davomida "Hayat Medical Centr" xususiy ko'p tarmoqli klinikasi laboratoriyasida o'tkazildi. Tadqiqotda 19 yoshdan 76 yoshgacha bo'lgan yangi koronavirus infeksiyasi ya'ni COVID-2019 bilan kasallangan 29 erkak va 31 ayollar, jami 60 bemor qatnashdi. Tadqiqotga barcha bemorlar o'z xoxishi bilan ishtirok etishdi.